

BOSHLANG’ICH TA’LIMDA O’QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Andijon shahar 48-maktab boshlang’ich sinf o’qituvchisi
Muminova Donoxon Odilovna
Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi talabasi
To’xtamurodova Oydiyoy Botirjon qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19452690>

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarining ijodiy salohiyatini, kreativ tafakkurini uyg’otishda zamonaviy psixologik mexanizmlardan foydalanishning ustuvor jihatlari tadqiq etilgan. Zamonaviy o’qitish tizimida o’quvchilarning mustaqil fikrlash doirasini kengaytirishning pedagogik hamda psixologik asoslari tahlil etilgan. Shuningdek, dars jarayonida interfaol metodlar hamda muammoli vaziyatli o’yinlar va raqamli texnologiyalar yordamida bolalarning iqtidorini yuzaga chiqarish yo’llari balki mustaqil fikrlash va noodatiy yechimlarni o’ylab topish qobiliyatini rivojlantirish usullari bayon etilgan. Bolalarda kreativlikni uyg’otish nafaqat ta’limiy, balki ularning o’ziga bo’lgan ishonchini oshiruvchi muhim omil ekanligi ko’rsatib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Kreativlik, innovatsion yondashuv, boshlang’ich ta’lim, psixologik mexanizmlar, mustaqil fikrlash, raqamli texnologiyalar, pedagogik mahorat, intellektual salohiyat.

Аннотация: В статье рассматриваются приоритетные аспекты использования современных психологических механизмов для развития творческого потенциала и креативного мышления учащихся начальных классов. Проанализированы педагогические и психологические основы расширения сферы самостоятельного мышления учащихся в современной системе образования. В нем также описываются методы раскрытия талантов детей с помощью интерактивных методов, проблемных ситуационных игр и цифровых технологий, а также способы развития их независимого мышления и способности придумывать нестандартные решения. Было показано, что развитие творческих способностей у детей является не только образовательным, но и важным фактором, повышающим их уверенность в себе.

Ключевые слова: Креативность, инновационный подход, начальное образование, психологические механизмы, самостоятельное мышление, цифровые технологии, педагогическое мастерство, интеллектуальный потенциал.

Annotation: In this article, priority aspects of the use of modern psychological mechanisms in awakening the creative potential, creative thinking of Primary School students were studied. In the modern teaching system, the pedagogical and psychological foundations of expanding the circle of independent thinking of students are analyzed. The lesson also describes ways to unleash children's talents using interactive methods, problem-solving games, and digital technologies, as well as ways to develop independent thinking and the ability to come up with unusual solutions.

Keywords: Creativity, innovative approach, primary education, psychological mechanisms, independent thinking, digital technologies, pedagogical skills, intellectual potential.

Kirish. Hozirgi shiddat bilan taraqqiy etayotgan va rivojlanib borayotgan bir zamonda insoniyatdan nafaqat an’anaviy bilimlar va ko’p yillik ko’nikmalarga ega bo’lish, balki yangicha fikrlash, murakkab muammolarni zamonaviy innovatsion yondashuvlar vositasida samarali hal qilish mahorati talab etilmoqda. Bugungi kunda jamiyatimizning har bir jabhasida, xoh u iqtisodiyot bo’lsin, xoh ijtimoiy soha, ijodiy va kreativ tafakkur yuritish ehtiyoji har qachongidan

ham yuqori darajaga ko’tarildi. Ayniqsa, o’quv-tarbiya jarayonlarida ta’lim oluvchilarning intellektual salohiyatini va kreativ qobiliyatlarini tizimli ravishda rivojlantirish pedagogika sohasidagi eng dolzarb hamda ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Zero, davlatimiz rahbari ta’kidlaganlaridek: “Bizga zamon talablariga mos, mustaqil va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda mas’uliyatni o’z zimmasiga olishga qodir bo’lgan yangi avlod kadrlari kerak” [211-213-bet] Darhaqiqat, aynan mana shunday yondashuv mamlakatimizni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishning asosiy garovidir. Kreativlik – bu oddiy bilimlarni egallashdan tashqari, mavjud muammolarga o’ziga xos, noodatiy va samarali yechim topish qobiliyatidir. O’quvchilarda bunday qobiliyatlarni rivojlantirish esa o’qituvchilarning yangicha metodlarga asoslangan, innovatsion yondashuvlarni ta’lim jarayoniga tatbiq etishiga bog’liq. An’anaviy yondashuvlar o’quvchilarni faqat bilim olishga yo’naltirsa, innovatsion pedagogik texnologiyalar ularga mustaqil fikrlash, yangi g’oyalarni ilgari surish va ijodiy yondashish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga faqat o’quvchilargina emas balki ularga ta’lim, bilim berayotgan o’qituvchilar ham kreativ fikrga ega bo’lishlari, turli xil kreativ fikrlarga boy, yangiliklarga ochiq bo’lishi zarur. Agar o’qituvchi eski o’qitish dasturiga tayanib qolsa, o’quvchining kreativ fikrlashi o’smay balki chekanib qolishi mumkin. Pedagoglar nafaqat ta’lim beruvchilar va yana o’z o’quvchilarining o’zida bor talantlarini ochib beruvchi ilhom manbai bo’lishlari kerak. Shuning uchun ham o’qituvchilar doimo o’z ustida ishlab o’zini rivojlantirib o’quvchilariga yangi metodlardan qo’llab o’qishga yanada qiziqtirishi va innovatsion yondashuvlari taklif qilishi ta’lim jarayonining o’sib borishiga katta hissa qo’shdi va samaradorligini oshiradi.

Ta’limda kreativlikni rag’batlantirishning eng samarali yo’llaridan biri – bu o’quv jarayonini faqat nazariy bilimlari bilan cheklanmay, balki ularni amaliy muammolar yechimiga yo’naltirishdir. Masalan, darslarda "Keys-stadi" (vaziyatli tahlil) yoki "Aqliy hujum" kabi usullarni qo’llash o’quvchilarni tayyor qoliplardan chiqishga va o’z g’oyalarini qo’rqmasdan bayon etishga undaydi. Bunda o’quvchi passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylanadi va o’z loyihalarini taqdim etish orqali mustaqil fikrlash ko’nikmasini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang’ich sinflarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy va pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatdiki, ushbu olib borilayotgan masala ta’lim sohasida jadal yo’llardan biri desam hech mubolag’a bo’lmaydi. Kreativlik va ijodiy tafakkurni yuksaltirish bo’yicha turli xil ishlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng miqyosda olib borilgan bo’lsa-da, ayni damlardan innovatsion pedagogik texnologiyalar va yangi ta’lim metodlari asosida zamonaviy qarashlar shakllanmoqda. Kreativlik va uning ta’riflari: Tadqiqotchilar kreativlikni turlicha talqin qiladilar. Masalan, Robinsonning fikriga ko’ra, “kreativlik- o’z qiymatiga ega original g’oyalar majmui” sanaladi deb fikr yuritgan. Shu kabi, J. Gilford[1] kreativlikni divergent tafakkur bilan bog’liq holda ko’rib chiqib, uning asosiy mezonlarini – original fikrlash, muammolarni turli xil yechimlar orqali hal qilish va moslashuvchan tafakkur sifatida belgilaydi. Shuningdek, E. de Bono[2] kreativ tafakkurni lateral tafakkur bilan bog’lab, muammolarga noodatiy yondashish va innovatsion yechimlar topish jarayoni sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuvlar o’quvchilarning nafaqat bilim olish, balki mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan.

O’zbek pedagogikasi va psixologiyasida ham kreativlik bo’yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, O. Musurmonova[4] o’quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish zarurligini ta’kidlaydi. Shuningdek, G’. Yuldashev[5] o’z tadqiqotlarida kreativlikni rivojlantirish uchun loyihaviy ta’lim va gamifikatsiya metodlarining samaradorligini yoritib bergan.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, kreativlikni rivojlantirish ta’lim sohasida ajralmas qism bo’lib, bu jarayonda o’qituvchilarni pedagogik yo’llari, faol ta’lim usullari,

kommunikativ metodlar va ilg'or texnologiyalar katta o'rin tutadi. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, kreativ tafakkurni shakllantirish uchun eski dars tizimlaridan vos kechib, izlanuvchanlik asosidagi ta'lim, kontseptsiyasi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar va mavjud pedagogik tajribalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ta'lim tizimida kreativlikni shakllantirish shunchaki qo'shimcha mahorat emas, balki hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan jarayondir. Maqolada ko'rib chiqilgan masalalar asosida quyidagi natijalarga erishildi: Interfaol metodlar samaradorligi: Hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalari va muammoli-izlanishli metodlar o'quvchilarning darsdagi faolligini ta'minlashda markaziy o'rinda turadi. Aynan muammoli vaziyatlarni yechish orqali "kelajak avlod" vakillarida kreativ tafakkur poydevori shakllanadi.

Raqamli texnologiyalar integratsiyasi: Zamonaviy raqamli vositalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini dars jarayoniga keng joriy etish, nazariy bilimlarni amaliyotga ko'chirishda ko'prik vazifasini o'taydi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarda loyihaviy ishlanmalarni yaratish ko'nikmasini shakllantiradi.

Xulosa. Zamonaviy dunyo tez o'zgarib, rivojlanib bormoqda va bu jarayonda ta'lim tizimining asosiy vazifasi faqatgina tayyor bilimlarni uzatish emas, balki shaxsning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi kreativ muhitni yaratishdan iboratdir. Bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'quvchi-yoshlarda mustaqil izlanish ko'nikmalarini shakllantirishga va har bir masalaga yangicha (innovatsion) yechim topishga yo'naltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish – bu nafaqat muhim, balki strategik zaruriyatdir. Zero, istiqbolli jamiyat aynan kreativ va innovatsion fikrlovchi avlod qo'lida bo'ladi. Shuning uchun biz bugun ta'limda ijodiy yondashuvlarni keng joriy etsak, ertaga murakkab muammolarga noodatiy yechim topa oladigan va jamiyatni har tomonlama rivojlantirishga qodir bo'lgan intellektual avlodni tarbiyalagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” Toshkent “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021-yil inson kapitalini rivojlantirish bobi.
2. Robinson, Azzam, 2009 y. J. Gilford, JP (1967). Inson aqlining tabiati. Nyu-York: McGraw-Hill.
3. De Bono, E. (1992). Jiddiy ijodkorlik: yangi g'oyalarni yaratish uchun lateral fikrlash kuchidan foydalanish. HarperBusiness.
4. Ismoilov, T. (2024). Qadimgi O'zbekistonning madaniy merosi. Menejment va iqtisodiyotda ijtimoiy muammolarni hal qilish, 3(11),
5. Musurmonova, O. (2013). Pedagogik innovatsiyalar va ta'lim jarayoni. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
6. Yuldashev, G. (2020). O'quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirishning pedagogik asoslari. Toshkent: Fan va Texnologiya Nashriyoti.
7. Алишерова Зульфия Толибджановна. (2025). Важность эмоционального интеллекта в развитии социально-психологической адаптации подростков. *Лучший журнал инноваций в науке, исследованиях и разработках*, 4(6), 148–150. Получено из <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/3411>
8. Yoqubaliyeva Dilafro'z Payzidin qizi Sun'iy intellekt – bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari ta'limini modernizatsiya qilish vositasi sifatida. (2025). *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*, 3(6). <https://doi.org/10.5281/zenodo.15779871>
9. Yoqubaliyeva, D. P. (2025). Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini “tarbiya” fanini o'qitishga tayyorlashning samarali tamoyillari va omillari. *Экономика и социум*, (2-2 (129)), 238-247.